Palvanova Nargiza Abdumuratovnaning pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya ishi himoyasi to‘g‘risida

“Adabiy ta’lim jarayonida lingvopoetik tahlildan foydalanish metodikasini takomillashtirish (oliy ta’limning san’at va madaniyat yo‘nalishi misolida)” mavzusida

Palvanova Nargiza Abdumuratovnaning 13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek adabiyoti) ixtisosligi bo‘yicha “Adabiy ta’lim jarayonida lingvopoetik tahlildan foydalanish metodikasini takomillashtirish (oliy ta’limning san’at va madaniyat yo‘nalishi misolida)” mavzusidagi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi himoyasi O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti huzuridagi PhD.11/2025.27.12.San.02.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2026-yil 12-noyabr kuni soat 12:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 100047, Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani, Yalang‘och dahasi, 127 A-uy. O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti.

Tel.: (+99871) 230-28-02

e-mail: uzdsimi@madaniyat.uz

Pedagoglar farzandlariga to‘lov-kontrakt summasining 30 foizi miqdorida chegirma beriladi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026 yil 17 sentabrdagi 501-son qaroriga muvofiq, davlat oliy ta’lim tashkilotlarida tahsil olayotgan pedagog xodimlarning farzandlariga to‘lov-kontrakt summasining 30 foizi miqdorida chegirma berish nazarda tutilgan.

 Chegirma berish tartibi:
 Chegirma har bir farzand uchun alohida, bir o‘quv yilida bir marta qo‘llaniladi.
 Arizalar maxsus axborot tizimi orqali elektron shaklda yuboriladi.
 Murojaatlar tegishli elektron ma’lumotlar asosida ikki kun muddatda ko‘rib chiqiladi.
 Belgilangan talablarga muvofiq to‘lov-kontrakt shartnomalari chegirma qo‘llanilgan holda rasmiylashtiriladi.

 Eslatma: Chegirma qo‘shma ta’lim dasturlari, qo‘shimcha va tabaqalashtirilgan to‘lov-kontrakt asosida tahsil olayotgan talabalarga tatbiq etilmaydi.

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida mazkur imkoniyatlarni belgilangan tartibda amalga oshirish bo‘yicha tegishli ishlar tashkil etiladi.

 Asos: Vazirlar Mahkamasining 2026 yil 17 sentabrdagi 501-son qarori hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2026 yil 9 oktabrdagi 417-son buyrug‘i.

Tursunov Xusniddin Isomovichning pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya ishi himoyasi to‘g‘risida

“Elektron ta’lim resurslari vositasida milliy musiqa cholg‘ularini mustaqil o‘rganish metodikasini takomillashtirish” mavzusida

Tursunov Xusniddin Исомовичнинг 13.00.02 –13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (musiqa ta’limi) ixtisosligi bo‘yicha “Электрон ta’lim resurslari vositasida milliy musiqa cholg‘ularini mustaqil o‘rganish metodikasini takomillashtirish” mavzusidagi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi himoyasi O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.11/2025.27.12.San.02.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2026-yil 16-oktabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Yalang‘och dahasi, 127 “A”-uy, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “A” binosi, 2-qavat, majlislar zali.

Tel: (+99871) 230-28-02; **faks:** (+99871) 230-28-15

e-mail: uzdsmi@madaniyat.uz

Beknazarov Xurshid Qaxramonovichning pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya ishi himoyasi to‘g‘risida

“Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining musiqiy kompetentligini o‘zbek xalq cholg‘ulari vositasida rivojlantirish” mavzusida

Beknazarov Xurshid Qaxramonovichning 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi ixtisosligi bo‘yicha “Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining musiqiy kompetentligini o‘zbek xalq cholg‘ulari vositasida rivojlantirish” mavzusidagi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi himoyasi O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.11/2025.27.12.San.02.01 raqamli Ilmiybkengashning 2026-yil 16-oktabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 100164, Toshkent shahri, MirzoUlug‘bek tumani, Yalang‘och dahasi, 127 “A”-uy, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti“A” binosi , 2-qavat, majlislar zali.

Tel.: (+99871) 230-28-02; **faks:** (+99871) 230-28-15

e-mail: uzdsmi@madaniyat.uz

Say Irina Konstantinovnaning pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya ishi himoyasi to‘g‘risida

Say Irina Konstantinovnaning 05.01.09 – Hujjatshunoslik. Arxivshunoslik. Kutubxonashunoslik (pedagogika fanlari) ixtisosligi bo‘yicha “Zamonaviy sharoitda tarixiy, madaniy va ijtimoiy o‘zgarishlar kontekstida O‘zbekiston kutubxonachilik ishi transformatsiyasi” mavzusidagi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi himoyasi O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.11/2025.27.12.San.02.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2026-yil 12-oktabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Yalang‘och dahasi, 127 “A”-uy, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “A” binosi, 2-qavat, majlislar zali.
Tel: (+99871) 230-28-02; faks: (+99871) 230-28-15
e-mail: uzdsmi@madaniyat.uz

Professor-o‘qituvchilar diqqatiga!

Professor-o‘qituvchilar diqqatiga!

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2026-yil 28-maydagi “O‘zbekiston va Turkiya rektorlari to‘rtinchi forumi yakunlari bo‘yicha erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish yuzasidan” 02-PA 1/1-2822xdfu-son topshirig‘ining 2.1-bandida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida institut professor-o‘qituvchilari o‘rtasida ochiq tanlov e’lon qilinadi.

Tanlov doirasida joriy yilning noyabr oyida Turkiya Respublikasining nufuzli OTMlarida stajirovka o’tash uchun professor-o‘qituvchilarni tanlab olish rejalashtirilgan.

Tanlovning maqsadi – institut professor-o‘qituvchilarining kasbiy va ilmiy salohiyatini oshirish, xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish, ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish va ta’lim jarayoniga tatbiq etish, shuningdek, O‘zbekiston va Turkiya oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlashdan iborat.

Tanlovda ishtirok etish istagida bo‘lgan professor-o‘qituvchilardan o‘zlarining kasbiy malakasi, ilmiy-pedagogik faoliyati, xalqaro hamkorlik tajribasi va mahorat darsi o‘tkazish salohiyatini tasdiqlovchi ma’lumotlarni taqdim etish so‘raladi.

Nomzodlar ochiq tanlov asosida, ularning kasbiy kompetensiyasi, ilmiy-pedagogik yutuqlari, xorijiy tilda muloqot qilish qobiliyati hamda rejalashtirilgan tadbirlarda samarali ishtirok etish imkoniyatlarini inobatga olgan holda saralanadi.

Tanlovda ishtirok etish tartibi, talab etiladigan hujjatlar va

hujjatlarni topshirish muddatlari yuzasidan qo‘shimcha ma’lumot olish uchun institutning Xalqaro hamkorlik bo‘limiga murojaat qilish mumkin.

Barcha professor-o‘qituvchilarni ochiq tanlovda faol ishtirok etishga chorlaymiz!

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti delegatsiyasining Belarus Respublikasiga xizmat safari yakunlandi

2026-yil 27–30-iyul kunlari O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti rasmiy delegatsiyasi Belarus Respublikasida xizmat safarida bo‘ldi. Mazkur tashrif O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Belarus Respublikasiga amalga oshirgan rasmiy tashrifi hamda O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov boshchiligidagi delegatsiyaning muzokaralari davomida erishilgan kelishuvlarning amaliy davomi sifatida tashkil etildi.

Xizmat safaridan ko‘zlangan asosiy maqsad ta’limni raqamli transformatsiya qilish, madaniyat sohasida zamonaviy axborot texnologiyalari va sun’iy intellekt yechimlarini joriy etish bo‘yicha Belarusning ilg‘or tajribasini o‘rganish, oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikni kengaytirish hamda qo‘shma ta’lim va ilmiy loyihalarni yo‘lga qo‘yishdan iborat bo‘ldi.

Institut delegatsiyasi tarkibida Raqamli ta’lim texnologiyalari markazi boshlig‘i Maksim Savochkin hamda “Axborot texnologiyalari” kafedrasi mudiri, texnika fanlari doktori (DSc), dotsent Aziza Kurbanova ishtirok etdi. Tashrifda O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Raqamlashtirish va sun’iy intellektni rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i Jasurbek Shermuhammedov ham qatnashdi.

Xizmat safari davomida delegatsiya Belarus davlat madaniyat va san’at universiteti, A.K. Glebov nomidagi Minsk davlat badiiy kolleji hamda Belarus davlat informatika va radioelektronika universiteti (BGUIR) faoliyati bilan yaqindan tanishdi.

Belarus davlat madaniyat va san’at universitetida delegatsiyani universitet rektori Natalya Karchevskaya, o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Svetlana Shparlo, ilmiy ishlar bo‘yicha prorektor Yelena Korsakova, xalqaro aloqalar bo‘limi boshlig‘i Vadim Samatiya, o‘quv-uslubiy bo‘lim boshlig‘i o‘rinbosari Yelena Kiseleva, axborot texnologiyalari va texnik o‘qitish vositalari bo‘limi boshlig‘i Igor Levin hamda madaniyat sohasida axborot texnologiyalari kafedrasi mudiri Tatyana Jilinskaya kutib oldilar.

Delegatsiya universitetning Sport va madaniyat markazi, muzeyi, kutubxonasi hamda zamonaviy kompyuter auditoriyalarini ko‘zdan kechirib, ta’lim va ilmiy infratuzilma, talabalar uchun yaratilgan shart-sharoitlar hamda raqamli ta’limni tashkil etish bo‘yicha ilg‘or tajriba bilan yaqindan tanishdi. Muzokaralar davomida ta’limni raqamlashtirish, madaniyat sohasi uchun zamonaviy mutaxassislarni tayyorlash, o‘quv jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va sun’iy intellektni joriy etish masalalari muhokama qilindi. Tomonlar professor-o‘qituvchilar va talabalar almashinuvi, yozgi maktablar, stajirovkalar, qo‘shma ilmiy-amaliy konferensiyalar hamda boshqa ta’lim va ilmiy loyihalarni amalga oshirish istiqbollarini ham ko‘rib chiqdilar.

Kunning ikkinchi yarmida delegatsiya A.K. Glebov nomidagi

Minsk davlat badiiy kollejiga tashrif buyurdi. Kollej direktori Aleksandr Shantarovich hamda o‘qituvchi Yuliya Sergeyeva delegatsiya a’zolarini o‘quv auditoriyalari, ixtisoslashtirilgan ustaxonalar va ijodiy laboratoriyalar bilan tanishtirdilar. Ayniqsa, grafik dizayn, multimedia dizayni, animatsion dizayn yo‘nalishlari bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash tizimi, badiiy ta’limda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish hamda amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim modeli delegatsiyada katta qiziqish uyg‘otdi.

29-iyul kuni delegatsiya **Belarus davlat informatika va radioelektronika universiteti (BGUIR)**ga tashrif buyurdi. U yerda universitet rektori Vadim Bogush, Ta’lim xizmatlarini ilgari surish markazi boshlig‘i Andrey Ushkurov hamda Masofaviy ta’limni rivojlantirish markazi boshlig‘i o‘rinbosari Anna Tereshkova bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi.

Uchrashuv davomida tomonlar raqamli ta’limni rivojlantirish, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, akademik mobillikni kengaytirish hamda ta’lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalari va sun’iy intellekt yechimlarini joriy etish bo‘yicha tajriba almashdilar. O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti delegatsiyasida BGUIRning elektron marketing, raqamli marketing, axborotni boshqarish tizimlari, sun’iy intellekt hamda axborot tizimlari va texnologiyalari (o‘yin industriyasida axborot tizimlari va texnologiyalari) yo‘nalishlari alohida qiziqish uyg‘otdi.

Belarus tomoni professor-o‘qituvchilarni tayyorlash, talabalar stajirovkalarini tashkil etish, qo‘shma ta’lim dasturlarini ishlab chiqish, ilmiy-amaliy tadbirlarni o‘tkazish hamda qo‘shma ilmiy va ta’lim loyihalarini amalga oshirishda har tomonlama hamkorlik qilishga tayyor ekanligini bildirdi. Bu esa O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti uchun ta’lim jarayonini raqamli transformatsiya qilish, zamonaviy IT yechimlarini joriy etish va xalqaro tajribani amaliyotga tatbiq etish borasida muhim imkoniyatlarni yaratadi.

Xizmat safari yakunlari O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti uchun Belarusning yetakchi oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni yanada mustahkamlash, professor-o‘qituvchilar va talabalar almashinuvini rivojlantirish, qo‘shma ta’lim dasturlari hamda ilmiy loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha yangi istiqbollarni ochib berdi. Eng muhimi, ushbu tashrif O‘zbekiston va Belarus o‘rtasida davlat rahbarlari hamda ikki mamlakat madaniyat sohasidagi idoralar darajasida erishilgan kelishuvlarning amaliy ijrosini ta’minlash yo‘lidagi navbatdagi muhim qadam bo‘ldi.





























Shermatova Xurshida Karimovnaning pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya ishi himoyasi to‘g‘risida

“Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarida bilimlarni mustaqil rivojlantirishning pedagogik texnologiyalaridan foydalanish metodikasi” mavzusida

Shermatova Xurshida Karimovnaning 13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (musiqa ta’limi) ixtisosligi bo‘yicha “Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarida bilimlarni mustaqil rivojlantirishning pedagogik texnologiyalaridan foydalanish metodikasi” mavzusidagi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi himoyasi O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.11/2025.27.12.San.02.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2026-yil 25-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Yalang‘och dahasi, 127 “A”-uy, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “A” binosi, 2-qavat, majlislar zali.

Tel: (+99871) 230-28-02; **faks:** (+99871) 230-28-15

e-mail: uzdsmi@madaniyat.uz